

## MA'NAVIY-AXLOQIY VA QADRIYATLI MUNOSABATLARGA TAYYORLASHDA PEDAGOGNING FAMILISTIK KOMPETENTLIGI

**Xaydarov Oxunjon**

*Qo'qon davlat pedagogik instituti o'qituvchisi*

**Annotatsiya:** *Mazkur maqolada o'quvchi-yoshlarni oilaga nisbatan ma'naviy-axloqiy va qadriyatli munosabatlarga tayyorlashning nazariy masalasi tahlil qilingan. O'quvchi-yoshlarni oilaga nisbatan ma'naviy-axloqiy va qadriyatli munosabatlarga tayyorlashda pedagogning ijodiy tafakkuri ham muhim ahamiyat kasb etishi, pedagogik refleksiya munosabati ko'rib chiqilgan.*

**Kalit so'z va iboralar:** *oila, o'quvchi, yosh, ma'naviy-axloqiy, milliy, qadriyat, munosabat, pedagogik refleksiya.*

O'quvchi-yoshlarni oilaga nisbatan ma'naviy-axloqiy va qadriyatli munosabatlarga tayyorlash natijasida ularda o'z mavqeini mustahkamlash, shaxs sifatida o'z nuqtai nazarini bayon qilishi uchun qulay sharoit yaratadi. O'z nuqtai nazarlarini qat'iylashtirish natijasida o'quvchilar oilaga nisbatan ma'naviy-axloqiy qadriyatlarga bo'lgan munosabatlarini namoyon qiladilar. Ushbu yo'nalishdagi faoliyatning asosiy maqsadi, muammoli vaziyatlarda qulay yechimlarga erishish ko'nikmalarini mustahkamlashga xizmat qiladi. O'quvchi-yoshlarda oilaga nisbatan ma'naviy-axloqiy va qadriyatli munosabat tajribasini shakllantirish natijasida muqobil qarorlar qabul qilish, o'z nuqtai nazarlarini bayon etish, atrofdagilar bilan ijobiy hamkorlik o'rnatish, shaxslararo munosabatlarni barqarorlashtirish, ziddiyatlarga yechim topish, o'zligini anglash, o'z faoliyati natijalarini namoyon qilish, samarali dialogga kirishish kabi muhim ko'nikmalar shakllanadi. Bu jarayonda o'qituvchi o'qitishning muqobil variantlarini qo'llay olishi, tarbiyaviy jarayonlarni kengaytirishi, o'quvchilar bilan imitatsion faoliyatni tashkil eta olishi muhim ahamiyatga ega. Bunda o'qituvchi tarbiyaviy faoliyatining axloqiy, g'oyaviy yo'nalishlari namoyon bo'ladi.

O'quvchi-yoshlarni oilaga nisbatan ma'naviy-axloqiy va qadriyatli munosabatlarga tayyorlashda quyidagilar muhim ahamiyatga ega:

- ma'naviy-axloqiy qadriyatlarning mazmun mohiyatini anglash;
- o'qituvchi-o'quvchi, o'quvchi-o'quvchilar orasida diologga asoslangan munosabatlarni yo'lga qo'yish;
- o'quvchilarning o'zaro bir-biriga ijobiy ta'sir ko'rsatishini ta'minlash;



- salbiy xulq-atvor stereotiplaridan qutulish, shaxslararo ijobiy munosabatlar o'rnatish kabilar.

O'quvchi-yoshlarda oilaga nisbatan ma'naviy-axloqiy va qadriyatli munosabat ko'nikmasini shakllantirishda ichki pedagogik sharoitlarni hisobga olish ham muhim ahamiyatga ega. Ular yordamida ma'naviy-axloqiy qadriyatlarni egallashga oid tashqi harakatlar tarkib topadi. O'quvchilarda oilaga nisbatan ma'naviy-axloqiy va qadriyatli munosabatlar tajribasini hosil qilish tashqi holatlar va shart-sharoitlar bilan ham bevosita bog'liqdir. Tashqi va ichki shart-sharoitlar orasida o'zaro ierarxiya mavjud bo'lib, u pedagogik jarayon yaxlitligini ta'minlashga xizmat qiladi. O'quvchilarda oilaga nisbatan ma'naviy-axloqiy va qadriyatli munosabatlar tajribasining shakllanishi istiqbolda ularning ongli faoliyat ko'rsatishlari uchun qulay sharoit yaratadi.

O'quvchi-yoshlarni oilaga nisbatan ma'naviy-axloqiy va qadriyatli munosabatlarga tayyorlash natijasida ularda o'ziga xos faoliyat usullari namoyon bo'ladi. Shaxslararo munosabatlar tizimida o'quvchilar bilan o'qituvchilar, o'qituvchilar va ota-onalar orasida hamkorlikka asoslangan faoliyat muhiti vujudga keladi. Bu esa o'quvchilarga o'qituvchilar, tengdoshlari, kattalar bilan chuqur ma'naviy muloqotga kirishish imkonini beradi.

O'quvchi-yoshlarni oilaga nisbatan ma'naviy-axloqiy va qadriyatli munosabatlarga tayyorlash natijasida ular insonparvar, madaniyatshunoslikka asoslangan muloqotga kirishish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Oilaga nisbatan ma'naviy-axloqiy va qadriyatli munosabat tajribasiga ega bo'lgan o'quvchilar uchun oilada mehnatsevarlik, intizomlilik, mas'uliyatlilik, o'z kuchiga ishonish, burch hissi kabi sifatlar xosdir.

O'quvchi-yoshlarni oilaga nisbatan ma'naviy-axloqiy va qadriyatli munosabatlarga tayyorlash ularda faoliyatning yangi turlarini egallash, mustaqil bilim olish, shaxslararo muloqot ko'lamini kengaytirish, xalqning asrlar davomida yaratgan san'at va madaniyat namunalarini o'zlashtirishga bo'lgan ishtiyoqni tarkib toptiradi. Oilaga nisbatan ma'naviy-axloqiy va qadriyatli munosabat tajribasiga ega bo'lgan o'quvchilarga quyidagi sifatlar xosdir:

- o'z harakatlari uchun mas'uliyat sezadi, o'zining istiqboldagi taraqqiyotini ta'minlay oladi;
- boshqalarga ziyon yetkazmagan holda o'z muammolarini hal qiladi;
- o'z-o'zini namoyon qilishga yo'naltirilgan faoliyatida yutuqlarga erisha oladi;
- o'zining o'quv faoliyati va muvaffaqiyatlaridan qoniqish hosil qiladi;
- yangi hayotiy tajribalar va o'zgarishlarni faol qabul qiladi.



Oilaga nisbatan ma'naviy-axloqiy va qadriyatli munosabatga ega bo'lgan o'quvchi-yoshlar o'z-o'zlarini rivojlantirish va mustaqil fikrlashga moyil bo'ladilar.

Oila va jamiyatning ijtimoiy mohiyatini o'quvchilarga anglatish orqali ularda oilaga nisbatan ma'naviy-axloqiy va qadriyatli munosabat tajribasini samarali shakllantirish mumkin. Buning uchun o'qituvchi o'quv jarayonini ijtimoiy voqelik va atrof-muhit bilan samarali uyg'unlashtira olishi kerak. Ushbu maqsadda o'quvchilarga taqdim etiladigan o'quv materiallari moddiy borliq, atrof-muhit va jamiyatga xos bo'lgan qadriyatlarni ularga taqdim etishga xizmat qilishi alohida ahamiyatga ega. O'quvchi-yoshlarda oilaga nisbatan ma'naviy-axloqiy va qadriyatli munosabat tajribasining shakllanishi ularning zarur vaziyatlarda o'zlarini namoyon qilishlari uchun qulaylik tug'diradi.

O'qituvchining shaxsiy nuqtai nazari muayyan qadriyatlarni pedagogik faoliyat va xulq-atvor jihatdan tushunish imkonini beradi. Shu bilan bir qatorda, o'qituvchining oilaga nisbatan ma'naviy-axloqiy hamda qadriyatli munosabat tajribasini shakllantirishga oid faoliyati mazmunini tushunishi refleksiya mexanizmlarisiz amalga oshmaydi. Bu esa o'qituvchilarda o'quvchi-yoshlarni oilaga nisbatan ma'naviy-axloqiy va qadriyatli munosabat tajribasini shakllantirishga oid familistik kompetentligini rivojlantirish omillaridan biridir.

Familistik kompetentlik tarkibiga kiradigan refleksiya elementlari ko'plab mutaxassislar tomonidan tavsiflangan. Ularning ta'biricha, ongli tarzda amalga oshiriladigan pedagogik faoliyatning tarkibiy qismini refleksiya tashkil qiladi. Chunki refleksiya pedagogik faoliyatning samaradorligini ta'minlovchi asosiy ko'rsatkich hisoblanadi. O'quvchi-yoshlarda oilaga nisbatan ma'naviy-axloqiy va qadriyatli munosabat tajribasini hosil qilish uchun ham ularning faoliyatini chuqur tahlil qilgan holda o'rganish muhim ahamiyatga ega.

Pedagogik refleksiya o'qituvchining muayyan maqsadga yo'naltirilgan pedagogik faoliyatini tahlil qilishga undaydi. Buning natijasida o'qituvchilarda o'quvchi-yoshlarda oilaga nisbatan ma'naviy-axloqiy va qadriyatli munosabat tajribasini shakllantirishga oid aniq qarashlar va yondashuvlarning hosil bo'lishini ta'minlaydi. O'qituvchilar har doim o'z oldilariga "Mening o'quvchilarimda oilaga nisbatan ma'naviy-axloqiy va qadriyatli munosabatlarning mazmun mohiyatini anglash, ularga amal qilish tajribasi qay darajada shakllangan?", "Men o'quvchilarimda oilaga nisbatan qadriyatli munosabat tajribasini xosil qilish uchun qanday didaktik vositalar, pedagogik usul va vositalardan foydalanishim kerak?", "Qanday ish shakllari va didaktik vaziyatlar o'quvchilardan oilaga nisbatan ma'naviy-axloqiy va qadriyatli munosabat tajribasini shakllantirish uchun samarali?"



degan savollarni qo'ya olishlari kerak. Chunki mazkur savollar o'qituvchining o'z faoliyatiga nisbatan refleksiv munosabatini aniqlash imkonini beradi.

O'qituvchining refleksiv qobiliyati zaminida uning o'z faoliyati asoslarini izlash ko'nikmasi namoyon bo'ladi. Refleksiya – o'qituvchining faqatgina o'zida mavjud bo'lgan bilimlar, ko'nikmalar, malakalarni tushunish imkoniyati emas, balki, uning shaxsiyati, faoliyati hamda bilish layoqatini ifodalovchi hodisa hamdir. Refleksiv ko'nikmaga ega bo'lgan o'qituvchi kishilik madaniyati asoslari, umuminsoniy va milliy qadriyatlarni ham o'zlashtirgan bo'ladilar. Refleksiya pedagog uchun ma'naviy-kasbiy layoqatini rivojlantirish imkonini beradi.

O'quv-tarbiya jarayonini o'quvchi-yoshlarda oilaga nisbatan ma'naviy-axloqiy va qadriyatli munosabatni shakllantirish nuqtai nazaridan va subyekt-subyekt munosabatlari doirasida tahlil qiladigan bo'lsak, o'qituvchining o'quvchiga ko'rsatadigan ta'siri natijasi refleksiv jarayon yordamida sezilarli darajada rivojlanadi. O'z bilimlari va kasbiy, familistik bilimlarini tahlil qilish mexanizmi sifatida pedagogik refleksiya o'z-o'zini nazorat qilish, fikrlash hamda mas'uliyatli xulq-atvor mexanizmi sifatida namoyon bo'ladi. Shu nuqtai nazardan o'quvchi-yoshlarda oilaga nisbatan ma'naviy-axloqiy va qadriyatli munosabat tajribasini shakllantirish uchun o'qituvchilarda refleksiv ko'nikmalarning rivojlanishi muhim ahamiyatga ega. Chunki refleksiya yordamida o'qituvchi o'quvchilar tomonidan o'zlashtirilgan bilimlar, axborotlar, oilaviy qadriyatlarni tahlil qiladi, ushbu yo'nalishdagi bo'shliqlarni aniqlaydi va yangi familistik bilimlarni taqdim qilish usullarini izlab topadi. Bunda o'qituvchining kasbiy-shaxsiy layoqatlari, kognitiv bilim va ko'nikmalari muhim o'rin egallaydi. Ushbu bilimlar o'qituvchiga o'quvchilar bilan osongina dialog o'rnatish, hamkorlikka kirishish va ularda shakllangan qadriyatli munosabat tajribalarini tahlil qilish imkonini beradi. Mazkur jarayonda o'quvchi-yoshlar bilan o'qituvchilar orasida refleksiyaning alohida shakli bo'lgan refleksiv munosabat tajribasi tarkib topadi.

O'quvchi-yoshlarni oilaga nisbatan ma'naviy-axloqiy va qadriyatli munosabatlarga tayyorlashda pedagogning ijodiy tafakkuri ham muhim ahamiyat kasb etadi. Ijodiy tafakkurning xarakterli xususiyati shundaki, bunday tafakkur tarziga ega bo'lgan o'qituvchi o'z bilimlari va tajribalarini o'quvchilarga osongina taqdim eta oladi. O'quvchi-yoshlarda oilaga nisbatan ma'naviy-axloqiy va qadriyatli munosabat tajribasini shakllantirish jarayoniga pedagogik ta'sir ko'rsatishning yangi imkoniyatlarini izlab topadi, o'z faoliyatida qo'llagan yangi usullarni ilg'or pedagogik texnologiyalarga mujassamlashtiradi.

Pedagogik refleksiya o'zida quyidagilarni mujassamlashtiradi:



- o'quvchi-yoshlarda oilaga nisbatan ma'naviy-axloqiy va qadriyatli munosabatlarga tayyorlashga yo'naltirilgan pedagogik faoliyatning asosiy usullarini belgilab olish, bunday faoliyatni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan mayllarga ega bo'lish;

- o'quvchilarda oilaga nisbatan ma'naviy-axloqiy va qadriyatli munosabat tajribasini shakllantirish jarayonida vujudga keladigan qiyinchiliklarni aniqlash va bartaraf etish yo'llarini bilish;

- o'zlarini o'quvchilar o'rniga qo'ya olgan holda eng zarur hayotiy qadriyatlarni o'zlashtirish usullarini qo'llay olish;

- o'zlarining o'quvchilarda oilaga nisbatan ma'naviy-axloqiy va qadriyatli munosabat tajribasini shakllantirishga oid faoliyatlarini obyektiv baholay olish.

Buning uchun o'qituvchi o'quvchilar faoliyatini tanqidiy baholash va tashxislash ko'nikmalariga ega bo'lishi lozim. Refleksiv faoliyat doirasida o'qituvchilar evristik izlanish asosida o'quvchilarning e'tiborini oilaga nisbatan ma'naviy-axloqiy va qadriyatli munosabat tajribasini egallashga oid o'quv maqsadlariga qarata olishi kerak. Shu maqsadda o'qituvchi pedagogik jarayonda vujudga kelgan ziddiyatlarni bartaraf etish yo'llarini izlashi muhim ahamiyatga ega. O'quvchilarda oilaga nisbatan ma'naviy-axloqiy va qadriyatli munosabat tajribasini egallashga oid innovatsion faoliyat jarayonida pedagogik refleksiya alohida o'rin egallaydi. O'qituvchi o'quvchilarda qadriyatli munosabat tajribasini shakllantirishga oid pedagogik faoliyatini innovatsion usullar yordamida amalga oshirish jarayonida innovatsion usullardan keng foydalanishi talab qilinadi. Bunday faoliyatni amalga oshirish rejasi o'qituvchi tomonidan tuzilib, maqsadga yo'naltirilgan holda pedagogik amaliyotga tadbiq etiladi.


Pedagogning o'quvchilarda qadriyatli munosabat tajribasini shakllantirishga yo'naltirilgan faoliyati uning kasbiy madaniy nuqtai nazarlarini mujassamlashtiradi.

Refleksiya pedagogning o'quvchi-yoshlarda oilaga nisbatan ma'naviy-axloqiy va qadriyatli munosabat tajribasini shakllantirishga oid kasbiy faoliyatini faollashtiruvchi mexanizm sifatida namoyon bo'ladi. Shuning uchun ham o'qituvchi o'z pedagogik faoliyati jarayonida har doim refleksiyaga ehtiyoj sezadi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Hasanboyeva O., Hasanboyev J., Hamidov H. Pedagogika tarixi. – T.: O'qituvchi, 1997. – 246 b.



- 
2. Mahkamov U.I. Yuqori sinf o'quvchilarida axloqiy madaniyatni shakllantirishining pedagogik asoslari: Pedagogika fanlari doktori. ... diss. – T., 1998. – 286 b.
  3. Pedagogika ensiklopediya. I jild / tuzuvchilar: jamoa. // Toshkent. "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti, 2015. – 320 b.
  4. Pedagogika: ensiklopediya. II jild / tuzuvchilar: jamoa.//Toshkent: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti. 2015. – 376 b.
  5. Pedagogika: ensiklopediya. III jild. jamoa // Toshkent: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti, 2017. 424-bet.
  6. Abdulla Avloniy. Turkiy guliston yohud axloq. – T.: O'qituvchi, 1992. – 160 b.
  7. Бачинин В.А. Духовная культура личности. – М., 1996. – 218 с.
  8. Тайланова Ш.З. Педагогика олий таълим муассасаси талабаларида қадриятлар тизимини шакллантириш ("Педагогика тарихи" фани мисолида): Педагогика фанлари номзоди. ... дисс. – Т., 2012. – 176 б.
  9. Ходжаев Б.Х. Педагогик аксиология. Ўқув қўлланма. – Т.: "Fan va texnologiya" нашриёти, 2012. – 180 б

